



# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

2024-YIL YANVAR-IYUN OYLARI

# Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2024-yilning yanvar-iyun oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami **2 965,1** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati **108,6 %** ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 368,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o’tgan yilning mos davriga nisbatan 187,2 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,2 % punktga ko‘payib, 12,4 % ni tashkil etdi.

# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2024-yil yanvar-iyun oylarida

## qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m



### Ma'lumot uchun:

Respublika boyicha eng yuqori qurilish hajmini kórsatgan Nukus shahri 973,8 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 106,0 %, To‘rtko‘l tumani 336,4 mlrd. so‘m va o‘sish sur’ati 106,4 %, Ellikqal'a tumani 254,0 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 109,9 %, Beruniy tumani 214,7 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 100,7 %, Mo‘ynoq tumani 138,9 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 151,9 %, ni tashkil etdi.


## Qurilish ishlari

### 2024-yil yanvar-iyun oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2 965,1</b>	<b>368,2</b>	<b>1 933,1</b>	<b>663,8</b>
<b>Nukus sh. tumanlar:</b>	<b>973,8</b>	<b>60,6</b>	<b>833,4</b>	<b>79,8</b>
Amudaryo	172,4	9,8	85,3	77,3
Beruniy	214,7	5,2	134,3	75,2
Bo'zotov	46,8	2,1	37,4	7,3
Qorao'zak	34,4	3,6	22,0	8,8
Kegeyli	57,7	15,3	30,8	11,6
Qo'ng'irot	155,9	60,3	70,5	25,1
Qonliko'l	36,4	2,6	4,1	29,7
Mo'ynoq	138,9	98,7	28,7	11,5
Nukus	140,6	4,8	77,5	58,3
Taxiatosh	151,7	27,3	105,9	18,5
Taxtako'pir	34,9	1,6	26,6	6,7
To'rtko'l	336,4	46,7	188,2	101,5
Xo'jayli	111,1	1,6	68,8	40,7
Chimboy	77,0	4,7	26,4	45,9
Shumanay	28,4	2,5	10,2	15,7
Ellikqal'a	254,0	20,8	183,0	50,2

2024-yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 368,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 187,2 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,2 % punktga ko'paydi va 12,4 % ni tashkil etdi.

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 71,0 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 202,2 %), Qo'ng'irot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 38,7 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 139,4 %), Kegeyli tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 26,5 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 466,0 %), va Taxiatosh (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 18,0 % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 65,5%) tumaniga to'g'ri keldi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 65,2 % i to'g'ri kelib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,3 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,1 % ni tashkil etgan holda 1 933,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




65,2

2024-yil  
yanvar-iyun

68,5


2023-yil  
yanvar-iyun



**Ma'lumot uchun:** Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri (833,4 mlrd. so'm yoki umumiyligi hajmiga nisbatan ulushi 85,6 %), To'rtko'l tumani (188,2 mlrd. so'm yoki 55,9 %) Beruniy tumani (134,3 mlrd. so'm yoki umumiyligi hajmaga nisbatan ulushi 62,6 %), ga to'g'ri keldi.

## Qurilish ishlaringin umumi hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 22,4 % ni tashkil etdi yoki 663,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 100,8 % ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **137,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **2 828,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **4,6** % va **95,4** % ni tashkil etdi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2024-yil yanvar-iyun oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaring katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaring 72,3 % i yoki 2 145,0 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 206,1 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,6 % ni tashkil etdi.

9,6 %

206,1  
mlrd. so'm

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 1330,2 mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi 62,0 % ni tashkil etdi.

62,0 %


1330,2  
mlrd. so'm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 608,7 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 28,4 % ni tashkil etdi.

28,4 %


608,7  
mlrd. so'm

## Yillar bo'yicha yangi qurilish hajmi va ulushi



## Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurishga 2 092,4 mlrd. so'm, ulushi 70,6 % ni, fuqarolik obyektlarini qurishga 703,1 mlrd. so'm, ulushi 23,7 % ni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga 169,6 mlrd. so'm va ulushi ulushi 5,7 %ni tashkil etdi



*Ma'lumot uchun:* Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

# Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,7 % punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,2 % punktga ko'payib, 60,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 % punktga kamaydi va 31,7 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 27,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,4 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 72,6 % ni tashkil etdi.

ulushi % da

19,0

81,0



Yirik qurilish  
tashkilotlari

2023-yil  
yanvar-iyun

27,4

72,6



Kichik korxona  
va mikrofirmalar

2024-yil  
yanvar-iyun

# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,7 % punktga kamaydi va 6,0 % ni tashkil etdi. Qolgan, 94,0 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,7 % punktga ko'paydi.

